

DAVLAT XARIDALARIDA KORRUPSIYANI OLDINI OLIISH UCHUN ELEKTRON PLATFORMALARNING ROLINI OSHIRISH

Niyazxodjayev Dilmurod Erkin o'g'li

Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi

Magistratura fakulteti tinglovchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19500442>

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada davlat xaridlari tizimida korrupsion xavflarni kamaytirishda elektron platformalarning o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni, davlat xaridlarini amalga oshirish tartibini belgilovchi hukumat qarori hamda Prezidentning korrupsiyaga qarshi siyosatni kuchaytirishga doir farmon va qarorlari asosida elektron xarid mexanizmlarining huquqiy asoslari yoritiladi.

Maqolada elektron do'kon, auksion, tanlov, tender va maxsus axborot portali kabi raqamli vositalarning ochiqlik, shaffoflik, raqobat, manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va jamoatchilik nazoratini kuchaytirishdagi ahamiyati asoslab beriladi. Tahlil natijasida elektron platformalar inson omilini qisqartirish, qaror qabul qilish jarayonini izchil qayd etish, shikoyatlarni elektron ko'rib chiqish, affillanganlikni aniqlash va ma'lumotlarni ommaga ochiq e'lon qilish orqali korrupsiyaning oldini olishda samarali institutsional mexanizm ekanligi xulosa qilinadi.

Kalit so'zlar: davlat xaridlari, korrupsiya, elektron platforma, maxsus axborot portali, shaffoflik, ochiqlik, raqobat, manfaatlar to'qnashuvi, elektron tender, jamoatchilik nazorati, raqamlashtirish.

Abstract. This scientific article analyzes the role of electronic platforms in corruption processes in the public procurement system. The legal framework of electronic procurement mechanisms is covered based on the Law of the Republic of Uzbekistan "On Public Procurement", the Law "On Combating Corruption", the Government Resolution establishing the procedure for implementing public procurement, and the decrees and resolutions of the President on anti-corruption policy. The article substantiates the importance of providing information about the openness, activity, benefits of electronic stores, auctions, competitions, tenders and information portals to the cabinet of a special product and control control. The analysis shows that electronic platforms create an effective institutional mechanism for combating corruption by eliminating the human factor, simplifying the decision-making process, electronically reviewing complaints, and publicly disclosing affiliation and information.

Keywords: public procurement, corruption, electronic platform, special information portal, openness, transparency, law, conflict of interest, electronic tender, control and supervision, digitalization.

Аннотация. В данной научной статье анализируется роль электронных платформ в снижении коррупционных рисков в системе государственных закупок. Исследование охватывает правовую основу механизмов электронных закупок на основе Закона Республики Узбекистан «О государственных закупках», Закона «О борьбе с коррупцией», Постановления Правительства, устанавливающего порядок осуществления государственных закупок, а также указов и распоряжений Президента об усилении антикоррупционной политики.

В статье обосновывается важность цифровых инструментов, таких как электронные магазины, аукционы, конкурсы, тендеры и специальные информационные порталы, в повышении открытости, прозрачности, конкуренции, выявлении конфликтов интересов и усилении общественного контроля. Анализ показывает, что электронные платформы являются эффективным институциональным механизмом предотвращения коррупции за счет снижения человеческого фактора, последовательной регистрации процесса принятия решений, электронного рассмотрения жалоб, идентификации принадлежности и публичного раскрытия информации.

Ключевые слова: государственные закупки, коррупция, электронная платформа, специальный информационный портал, прозрачность, открытость, конкуренция, конфликт интересов, электронные тендеры, общественный контроль, цифровизация.

KIRISH

Davlat xaridlari har qanday davlat moliyaviy boshqaruv tizimining eng muhim institutlaridan biri bo'lib, budjet mablag'larining samarali va maqsadli sarflanishini ta'minlaydi.

Biroq aynan ushbu soha yirik moliyaviy oqimlar sababli korrupsiyaga eng ko'p moyil yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu bois davlat xaridlarini raqamlashtirish, xarid tartib-taomillarini elektron shaklga o'tkazish va barcha bosqichlarni yagona axborot maydonida qayd etish zamonaviy korrupsiyaga qarshi kurash siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirdi. Bu yondashuv O'zbekiston qonunchiligida ham mustahkam ifodasini topgan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunining 1-moddasiga ko'ra, mazkur Qonunning maqsadi davlat xaridlari sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunning 5-moddasida esa davlat xaridlarining asosiy prinsiplari sifatida kasbiy mahorat va mas'uliyatlilik, mablag'lardan oqilona foydalanish, ochiqlik va shaffoflik, raqobat va xolislik, davlat xaridlari tizimining yagonaligi va yaxlitligi hamda korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik prinsiplari belgilangan. Mazkur normalarning o'ziyoq elektron platformalar shunchaki texnik vosita emas, balki huquqiy prinsiplarni real mexanizmga aylantiruvchi vosita ekanini ko'rsatadi.¹ Davlat xaridlarida korrupsiyani oldini olish masalasi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun bilan ham bevosita bog'liq.

Ushbu Qonunning 4-moddasida ochiqlik va shaffoflik korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari sifatida e'tirof etilgan bo'lsa, 19-moddada davlat organlari faoliyatining ochiqligi va hisobdorligini ta'minlash korrupsiyaning oldini olishning muhim vositasi sifatida belgilangan. 21-moddada esa manfaatlar to'qnashuvini oldini olish hamda bartaraf etish majburiyati davlat xizmatchilariga yuklatilgan.² Demak, davlat xaridlaridagi elektron platformalar umumiy antikorrupsiya siyosatining amaliy davomi deb aytish mumkin. Shu sabablarga ko'ra davlat xaridlarida sohasida korrupsiyani oldini olishda elektron platformalarning rolini oshirish ilmiy jihatdan murakkab hisoblanadi.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Mazkur maqolada tizimli-huquqiy tahlil, qiyosiy-huquqiy yondashuv, normativ-hujjatlarni sharhlash va institutsional tahlil metodlaridan foydalanildi.

¹ <https://lex.uz/docs/-5382974> "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonun.

² <https://lex.uz/docs/-3088008> "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi.

Tadqiqot manbalari sifatida O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari hamda davlat xaridlarida shaffoflik va raqamlashtirish masalalariga bag‘ishlangan ilmiy va tahliliy adabiyotlar olindi. Ayniqsa, davlat xaridlari tizimining huquqiy me‘yorlari bilan ularning elektron shaklda qo‘llanish mexanizmlarini bog‘lab o‘rganish ushbu maqolaning asosiy metodologik yo‘nalishini tashkil etdi.

Barchamizga ma‘lumki, hozirgi vaqtda davlat xaridlari sohasida “Korrupsiyasiz soha” loyihasi amalga oshirilib kelinmoqda. Davlat xaridlari sohasida “Korrupsiyasiz soha” loyihasini amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlarning 28 banddan iborat “Yo‘l xaritasi” tasdiqlangan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashining yig‘ilishlarida davlat xaridlari sohasida “Korrupsiyasiz soha” loyihasini amalga oshirish bo‘yicha bajarilgan ishlar bo‘yicha muhokamalar o‘tkazilib kelinmoqda.

Bu borada: davlat xaridlari sohasiga oid qonunchilik hujjatlari korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazildi, tegishli xalqaro moliya institutlari bilan kelishuvlar imzolangan bo‘lib, bugungi kunda ushbu loyiha doirasida namunaviy xarid hujjatlari ishlab chiqildi, Moliya vazirligi O‘quv markazida davlat boshqaruv organlari va ularning tizimdagi xodimlari hamda xo‘jalik jamiyatlari va strategik ahamiyatga ega korxonalar hamda boshqa tashkilotlar xodimlari uchun malaka oshirish kurslari tashkil qilindi.³

Hozirda davlat xaridlari maxsus axborot portali (<http://xarid.uz>) orqali amalga oshiriladi.

Unda davlat xaridlarini rejalashtirish, xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish, shartnoma tuzish, davlat xaridlari monitoringini olib borish va nazorat qilish jarayonlari tizimlashtirilgan. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan yaratilgan yana bir platforma bu “**E-anticor.uz**” elektron platformasidir.

Mazkur elektron platforma O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-81-son qarori asosida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturining O‘zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan.

Mazkur platformani yaratishda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro standartlar inobatga olindi va xorijiy mamlakatlar tajribasi, xususan Janubiy Koreya tajribasi o‘rganildi.⁴

Davlat xaridlarini amalda tashkil etish mexanizmlari Vazirlar Mahkamasining 276-son qarori bilan tasdiqlangan tartib orqali belgilangan. Mazkur hujjatda elektron raqamli imzo orqali ishtirok etish, affillanganlikni deklaratsiya qilish, manfaatlar to‘qnashuvi mavjud bo‘lsa jarayonni to‘xtatish, shartnomalarni avtomatik shakllantirish va ro‘yxatga olish kabi qoidalar mustahkamlangan. Bu orqali elektron platformalarning korrupsiyani kamaytirishdagi ahamiyati faqat umumiy qoida emas, balki aniq protsessual mexanizmlar bilan qo‘llab-quvvatlanganini ko‘rsatadi.⁵

Adabiyotlar tahlilini olib borish davomida ma‘lum bo‘ldiki, xalqaro ilmiy manbalarda ham e-procurement tizimlari korrupsiyaga qarshi samarali vosita sifatida baholanadi.

³ Gulnora Rahimova. DAVLAT XARIDLARI TIZIMIDA KORRUPSIYANING OLDINI OLISH BO‘YICHA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR [maqola].

⁴ <https://old.anticorruption.uz/uz/item/elektron+hukumat> Korrupsiyaga qarshi kurashishda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish borasida Agentlik tomonidan olib borilayotgan chora-tadbirlar

⁵ <https://lex.uz/docs/-6026643> Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizom.

Ilmiy hamda normative tahlilga ko‘ra, davlat xaridlarida shaffoflik, hisobdorlik, raqobat va raqamli texnologiyalarni joriy etish byurokratik to‘siqlarni kamaytiradi, inson omilini qisqartiradi va noqonuniy aralashuvlar uchun imkoniyatlarni toraytiradi. Raqamli yechimlar bo‘yicha ilmiy maqolalarda esa elektron platformalar, avtomatlashtirilgan monitoring, sun‘iy intellekt va ma‘lumotlarni tahlil qilish vositalari xaridlardagi xavf indikatorlarini erta aniqlash imkonini berishi ta‘kidlangan.

NATIJAR VA MUHOKAMA

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, elektron platformalar davlat xaridlarida korrupsiyani oldini olishning kamida uchta asosiy yo‘nalishida muhim ahamiyatga ega: birinchi yo‘nalish - ochiqlik va shaffoflikdir. “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunning 9-moddasi davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborotni maxsus axborot portaliga to‘liq, o‘z vaqtida, erkin va bepul joylashtirishni talab qiladi.⁶ Mazkur norma korrupsiyaning eng keng tarqalgan shakllaridan biri bo‘lgan axborotni yashirish, xarid shartlarini sun‘iy cheklash yoki tender natijalarini manipulyatsiya qilish xavfini kamaytiradi. Prezidentning PQ-5177-son qarorida esa tender va tanlov natijalarini majburiy ravishda ochiq e‘lon qilish amaliyoti joriy etilgani qayd etilgan.⁷ Demak, elektron platforma davlat xaridlarini “yopiq kabinet” amaliyotidan “ochiq kuzatuv maydoni”ga aylantiradi.

Ikkinchi yo‘nalish - raqobatni kuchaytirishdir. Qonunning 5-moddasida raqobat va xolislik asosiy prinsip sifatida belgilangan. 4-moddada esa elektron do‘kon, boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion, eng yaxshi takliflarni tanlash va tender kabi raqobatli usullar mustahkamlangan. Elektron platformalarda ushbu tartib-taomillarning standart algoritmlar asosida o‘tkazilishi bir ishtirokchini sun‘iy ravishda afzallashtirish imkoniyatini cheklaydi.

Xususan, narx pasaytirish mexanizmi, takliflarni tizim orqali qabul qilish va g‘olibni oldindan belgilangan mezonlar asosida aniqlash korrupsion kelishuvlar ehtimolini pasaytiradi.

Uchinchi yo‘nalish - inson omilini qisqartirish va avtomatlashtirishdir. Vazirlar Mahkamasining 276-son qarorida elektron davlat xaridlarida ishtirok elektron raqamli imzo orqali amalga oshirilishi, tizim avtomatik ravishda ishtirokchilarni aniqlashi, shartnomalarni namunaviy shakl asosida shakllantirishi hamda ma‘lumotlar bazalari bilan integratsiyalashgan holda tekshiruvni amalga oshirishi nazarda tutilgan. Bu esa mansabdor shaxsning subyektiv aralashuvi, hujjatlarni qo‘lda “saralash”, soxta hujjat qabul qilish yoki protsessual kechiktirish kabi korrupsion amaliyotlarni kamaytiradi.

Qayd etish joizki, davlat xaridlari sohasi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan va doimiy ravishda mavjud mexanizmni zamonaviy qoidalar va texnologiyalar asosida takomillashtirib borishni talab etadigan murakkab jarayon bo‘lib, ushbu jarayonda korrupsiyaning oldini olish, inson omilini (aralashuvini) qisqartirish va pirovard natijada davlat xaridlari uchun ajratiladigan davlat byudjeti mablag‘laridan samarali foydalanishni ta‘minlash asosiy masala hisoblanadi.

Statistik ma‘lumotlar ham aynan ushbu masalaning dolzarbligidan dalolat beradi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligining ma‘lumotiga ko‘ra, 2024 yilda respublika bo‘yicha jami 248,6 trln. so‘mlik davlat xaridlari amalga oshirilgan bo‘lib, bu yalpi ichki mahsulotning 17 foizini tashkil etgan.

⁶ <https://lex.uz/docs/-5382974> “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonun.

⁷ <https://lex.uz/docs/-5495533> Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida

Bu, albatta, davlat byudjetidan ajratilgan katta miqdordagi mablag bo‘lib, ushbu mablag‘lardan samarali foydalanishni tashkil etish va nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etadi.⁸

Shunday qilib, tadqiqot natijalari elektron platformalar davlat xaridlarida korrupsiyani oldini olishning samarali vositasi ekanini tasdiqladi.

XULOSA

Tadqiqot bo‘yicha xulosa qiladigan bo‘lsak, tadqiqot natijasida davlat xaridlarida korrupsiyani oldini olishda elektron platformalar markaziy institutsional vosita hisoblanadi. O‘zbekiston milliy qonunchiligi elektron xarid tizimlarini joriy etish orqali ochiqlik, shaffoflik, raqobat, xolislik, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish uchun yetarli normativ-huquqiy asos yaratgan. Xususan, “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonun, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun, Vazirlar Mahkamasining 276-son qarori, PF-6257-son Farmon va PQ-5177-son Qaror elektron platformalarning antikorrupsiyaviy funksiyalarini bevosita yoki bilvosita mustahkamlaydi.

Biroq tadqiqot davomida aniqlanishicha, elektron platformalarning samaradorligi faqat ularning mavjudligi bilan emas, balki ularning qanchalik integratsiyalashgan, avtomatlashtirilgan, nazoratga yo‘naltirilgan va ma‘rifiy funksiyalarga ega ekani bilan belgilanadi. Shu bois davlat xaridlarida elektron platformalarni rivojlantirish masalasiga faqat texnik modernizatsiya sifatida emas, balki korrupsiyaga qarshi institutsional siyosatning muhim elementi sifatida yondashish lozim. Shu tariqa, elektron platformalarni takomillashtirish davlat xaridlarida korrupsiyani kamaytirishning nafaqat amaliy vositasi, balki zamonaviy huquqiy davlat va raqamli boshqaruv tamoyillarini ro‘yobga chiqarishning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://lex.uz/docs/-5382974> “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonun.
2. <https://lex.uz/docs/-3088008> “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi.
3. Gulnora Rahimova. DAVLAT XARIDLARI TIZIMIDA KORRUPSIYANING OLDINI OLIH BO‘YICHA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR [maqola].
4. <https://old.anticorruption.uz/uz/item/elektron+hukumat> Korrupsiyaga qarshi kurashishda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish borasida Agentlik tomonidan olib borilayotgan chora-tadbirlar
5. <https://lex.uz/docs/-6026643> Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizom.
6. <https://lex.uz/docs/-5495533> Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida.
7. https://uza.uz/oz/posts/davlat-xaridlari-sohasida-korrupsiyaning-oldini-olish-choralari-kuchaytiriladi_703085
8. Davlat xaridlari sohasida korrupsiyaning oldini olish choralari kuchaytiriladi.

⁸ https://uza.uz/oz/posts/davlat-xaridlari-sohasida-korrupsiyaning-oldini-olish-choralari-kuchaytiriladi_703085
Davlat xaridlari sohasida korrupsiyaning oldini olish choralari kuchaytiriladi.